



12-dars. Ko'p xonali sonlarni taqqoslash




1. Sonlarning **grafik modellarini** ko'rib chiqing.

- Qanday sonlar tasvirlangan?
- Bu sonlardan qaysi biri katta?





Ko'p xonali sonlarni taqqoslash

Agar ko'p xonali sonlarning raqamlari miqdori bir xil bo'lsa, birinchi farq qiladigan raqami katta bo'lgan son katta bo'ladi.



Agar ko'p xonali sonlarning raqamlari miqdori har xil bo'lsa, raqamlari ko'p bo'lgan son katta bo'ladi.



2. Taqqoslang.

$$\begin{array}{l} 340 \square 620 \\ 280 \square 267 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 6070 \square 67 \\ 2830 \square 2803 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 75350 \square 75305 \\ 98900 \square 9899 \end{array}$$



3. Registonga kecha 345 nafar, bugun esa kechagidan 109 nafar ko'p sayyoh tashrif buyurdi. Shu ikki kun davomida Registonga jami necha nafar sayyoh tashrif buyurgan?



4. Dastlab tenglamalarning **o'ng qismini** hisoblang, keyin ularni yeching.

$$2 \cdot x = 300 - 282$$

$$y : 7 = 808 - 799$$




5. a) Sonlarni **o'sish** tartibida yozing:
99998, 315, 3015, 23009, 210, 3150, 100000.
b) Sonlarni **kamayish** tartibida yozing:
370156, 380, 49827, 56013, 420, 150, 37989.



6. **1925** sonining raqamlaridan eng katta va eng kichik to'rt xonali sonlar tuzing. Ularning ayirmasini toping.



7. Masofalarni taqqoslang:



- a) Nukusdan Qarshigacha Buxoro orqali yo'l;
b) Qarshidan Andijongacha Toshkent orqali yo'l;
d) Toshkentdan Buxorogacha Qarshi orqali yo'l.



8. Jasur **5, 6, 7, 8, 9** raqamlari yozilgan kartochkalardan foydalanib, barcha mumkin bo'lgan besh xonali sonlarni tuzdi. So'ng u hosil bo'lgan sonlarni **o'sish** tartibida yozdi. Bu holda 79865 sonidan keyin qaysi son keladi?



9. Sayyoh Samarqandda suvenirlar uchun 312 tanga sarfladi, **bu** Toshkentda sarflaganidan 57 tangaga ko'p. Sayyoh suvenirlar uchun jami necha tanga sarflagan?

10. Sonlarni taqqoslang.

475470 ☐ 65610

100000 ☐ 99999

390757 ☐ 530772

100280 ☐ 106798

302000 ☐ 999

834921 ☐ 834567

